

KOREYS TILIDA QO'SHMA FE'LLAR YASALISHINING ASOSIY TURLARI

F. Abraqulova ¹*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada koreys tilidagi qo'shma fe'llar yasallishining asosiy usullari, imlosi, lingvistik xususiyatlari va ularga bir nechta misollar keltirilgan. Hamda kompozitsion usulda - so'z turkumlarining qo'shilishi natijasida va xitoy ierogloflari orqali qo'shma fe'llarning yasallishi haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, qo'shma fe'llarning koreys, o'zbek va ingliz tillaridagi yasallmalarining o'xshashlik va farqlari ham aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: so'z yasallishi, mustaqil so'z turkumlari, tilshunoslik, leksema, qo'shma fe'llar, taqqosiy tahlil.

Kirish. "Til lug'at tarkibining yangi yasallgan so'zlar hisobiga boyib borishi, so'z ma'nosining o'zgarishi, uni boshqa ma'noda ishlatilish yo'li bilan yangi so'z hosil qilish – bular so'z yasallishining leksikologiya bilan aloqasini ko'rsatadi. So'z yasallishiga oid asosiy tushunchalarni to'la va to'g'ri belgilash, ulardan har birining mohiyatini to'laligicha, to'g'ri yoritish imkonini beradi." [Hojiyev A.2010.6].

Koreys tili ham o'zbek tili kabi agglyutinativ tillar guruhiga kiradi, ya'ni bu tilda so'zning o'zak qismiga qo'shimchalar qo'shilishi natijasida yangi so'zlar hosil bo'luvchi tillardir. Agglyutinativ tillarda so'zning o'zak yoki asosini o'zgartirmagan holda qo'shimchalar qo'shish bilan ma'lum so'z va shakl yasalladi. Koreys tili ham aynan shunday xususiyatga ega. Quyida manashu izohga oid misollar keltiriladi:

1. O'zbek tilida: *kitob, kitoblar, kitoblarda, kitoblardagi* (asos "kitob" so'zi, unga ko'plikka "-lar", kelishikka "-da", aniqlovchi qo'shimchasi "-gi" qo'shilyapti.); *bor, bordi, bordim, boramiz* (fe'lga zamon va shaxs-son qo'shimchalari qo'shib bormoqda.)

2. Koreys tilida: *책 [chek] kitob; 책들 [chekdil] kitoblar; 책들에서 [chekdireso] kitoblarda.* (Bu yerda "-들[-dil]" ko'plik qo'shimchasi va "-에서[-eso]" kelishik qo'shimchasi ishlatilgan. *가다 [kada] bormoq; 갔다 [katta] bordi; 갔습니다 [kassimnida] bordim/bordingiz* – rasmiy shaklda.

Koreys tilidagi qo'shma so'z va qo'shma fe'llar haqida fikr yuritadigan bo'lsak, ularning ta'rifi ham xuddi o'zbek tilidagi berilgan ta'rifga o'xshash hisoblanadi. Koreys tilida qo'shma fe'llar (*복합 동사*) yuqorida ham aytilganidek ikki yoki undan so'z birikib, bitta fe'l sifatida ishlatiladigan tuzilmalardir. Ular ko'pincha asosiy fe'l va yordamchi fe'l kombinatsiyasidan tashkil topadi.

Qo'shma fe'llarning asosiy turlari.

1. Harakat va natijani bildiruvchi qo'shma fe'llar.

Bu turdagi fe'llarda oldidagi so'z harakatni bildirsa, keyingisi natijani ifodalaydi. Masalan: *보다 [poda] ko'rmoq; 살펴보다 [salpyopoda] diqqat bilan ko'rmoq. 가다 [kada] bormoq; 떠나가다 [tteonada] ketib qolmoq. 오다 [oda] kelmoq; 다가오다 [dagaoda] yaqinlashmoq.*

1. Harakat uslubini bildiruvchi qo'shma fe'llar.

Bu turdagi fe'llar harakat qanday sodir bo'layotganligini ko'rsatadi. Masalan: *놓다 [nohta] qo'yimoq; 집어놓다 [chibonohda] qo'yib qo'yimoq. 버리다 [porida] tashlamoq; 잊어버리다 [ijjoporida] butunlay unutmoq. 내다 [neda] chiqarmoq; 불어내다 [puloneda] puflab chiqarish.*

2. Davomiylikni bildiruvchi qo'shma fe'llar.

Bu turdagi fe'llar harakatning davomiyligi yoki tugashini anglatadi. Masalan: *가다 [kada] bormoq; 흘러가다 [hillokada] oqib ketmoq. 오다 [oda] kelmoq; 올라오다 [ollaoda] ko'tarilib ketmoq. 두다 [tuda] qo'yimoq. 남겨두다 [namkyotuda] qoldirib qo'yimoq.*

3. Ehtiyotkorlik va niyatni bildiruvchi qo'shma fe'llar.

¹ Abraqulova Feruza Anvar qizi, Samarqand davlat chet tillar instituti sharq tillari fakulteti, Filologiya va tillarni o'qitish koreys tili yo'nalishi 2401-guruh talabasi

Bu turdagi qo'shma fe'llar harakatni qay holatda yoki qanday bajarganligini bildiradi. Masalan: *보다* [poda] ko'rmoq; *해보다* [hepoda] harakat qilib ko'rmoq. *놓다* [nohda] qo'ymoq; *신경 써놓다* [shinkyong ssonohda] e'tibor berib qo'ymoq. *주다* [chuda] bermoq; *도와주다* [dowachuda] yordam berib qo'ymoq.

Qo'shma fe'llar koreys tilida juda keng qo'llaniladi va nutqni tabiiyroq qiladi. O'rganishda, gapning konteksi orqali ularning nozik farqlarini tushunish mumkin. Qo'shma fe'llar koreys tilida asosan fe'l+fe'l yoki ot+fe'l shaklida yasaladi va buni biz yuqorida berilgan qo'shma fe'llarning turlarida ham ko'rishimiz mumkin. Misol uchun: *오가다* = *오다* + *가다* kelib ketmoq, *내려오다* = *내리다* + *오다* tushib kelmoq, *가져가다* = *가지다* + *가다* lib ketmoq, *들어오다* = *들다* + *오다* kirib chiqmoq. Bu qo'shma fe'llar fe'l+fe'l tarzida yasalgan.

Xitoy ierogliflari orqali fe'l yasalishi.

Yuqoridagi qo'shma fe'llardan tashqari xitoy ierogliflari orqali ham fe'l yasash mumkin. Bu fe'llarning aksariyati hanja (*하다*) asosida shakllangan bo'lib, ular ikki undan ortiq fe'llarning birikmasidan hosil bo'ladi. Bu fe'llar ham ikki fe'l yoki fe'l+ot shaklida yasaladi. Masalan, *일하다* = *일* + *하다* (ish + qilmoq = ishlamoq); *공부하다* = *공부* + *하다* o'qish + qilmoq = o'qimoq. *소개하다* = *소개* + *하다* tanishtirmoq. Bu qo'shma fe'llar otga *하다* [hada] harakat fe'li qo'shilishi orqali hosil bo'lgan. Masalan, *나는 책을 읽고 잠을 잤다* (Men kitob o'qib uxladim). Koreys tilidagi qo'shma fe'llarning ko'pchiligi hanja (xitoy ierogliflari) asosida yasalgan. Ayniqsa, rasmiy va ilmiy nutqda hanja asosidagi qo'shma fe'llar ko'p uchraydi. Lekin kundalik nutqda ham oddiy fe'l+fe'l yoki fe'l+ot shaklidagi qo'shma fe'llar keng qo'llaniladi.

O'zbek va ingliz tillarida ham qo'shma fe'llar mavjud bo'lib, ularning yasalish usullari va grammatik xususiyatlari koreys tili bilan taqqoslanganda ayrim o'xshashlik va farqlarga ega.

Qo'shma fe'llarning koreys o'zbek va ingliz tillaridagi tuzilmalarning o'xshashliklari.

Koreyscha	O'zbekcha	Inglizcha	Izoh
<i>먹고, 마시다</i>	Yeb ichmoq	Eat and drink	Ikki fe'l birikib, ketma-ketlikni bildiradi
<i>공부하다, 운동하다</i>	O'qib mashq qilmoq	Study and exercise	"-고" bog'lovchisi orqali bog'lanadi.
<i>기다리고, 참다</i>	Kutib sabr qilmoq	Wait and endure	O'zbek va ingliz tillarida bevosita bo'lmagan ikkita mustaqil fe'l shaklida.
<i>결정하다</i>	Qaror qilmoq	Decide	Hanja asosida yasalgan qo'shma fe'l.
<i>연구하다</i>	Tadqiq qilmoq	Research	"하다" yordamida qo'shma fe'l hosil bo'lgan.
<i>노력하다</i>	Harakat qilmoq	Make and effort	Ingliz tilida "do/make" kabi yordamchi fe'llar ishlatiladi.

Qo'shma fe'llar orqali murakkab tushunchalar ifodalanadi: Har uch tilda ham murakkab harakatlarni ifodalash uchun qo'shma fe'llardan foydalanadi. Masalan, kechirim so'ramoq (*사과하다*, apologize) yoki yordam bermoq (*도와주다*, help) kabi fe'llar uchta tilga ham xos.

Farqlari: Uchta tilda ham qo'shma fe'llarning yasalishda ba'zi noo'xshashliklar mavjud. Shu jumladan, koreys tilida qo'shma fe'llar *하다* bilan hosil bo'lgan hanja asosidagi otlardan yasaladi. Ammo o'zbek va ingliz tillarida bunday fe'llar odatda mustaqil so'z sifatida uchraydi. Masalan, koreys tilida *결정하다* (qaror qilmoq); o'zbek tilida *qaror qilmoq*; ingliz tilida esa *decide*, yani bitta mustaqil fe'l shaklidir. Bu esa uchta tildagi qo'shma fe'llarning grammatik yasalish usulidagi farqi hisoblanadi. Shu bilan birga yordamchi fe'llar tizimida ham ba'zi farqlar mavjud. Koreys tilida *주다* (bermoq), *보다* (ko'rmoq) kabi fe'llar yordamchi fe'l vazifasida keladi. O'zbek tilida ham shunchaki yordam so'ziga bermoq yordamchi fe'lini qo'shish orqali yasaladi. Lekin ingliz tilida biron bir maqsad uchun help, let yoki make kabi fe'llar ishlatiladi. Masalan, koreys tilida *도와주다*; o'zbek tilida *yordam bermoq*; ingliz tilida esa *help someone...* Yana bir farqlaridan biri – koreys tilida harakat

ketma-ketligi -고/어사 bilan beriladi. O'zbek va ingliz tillarida bu odatda vergul yoki bog'lovchi bilan ifodalanadi. Masalan, koreys tilida: 친구를 만나서 같이 밥을 먹었다; o'zbek tilida: *Do'stim bilan uchrashib, birga ovqat yedik.* Ingliz tilida: *I met my friend and we ate together.*

Xulosa

Koreys tilini o'rganishda qo'shma fe'llarning yasaliş usullarini tushunish muhim, chunki ular so'z boyligini oshirish va murakkab gaplarni shakllantirishda asosiy ro'l o'ynaydi. Koreys, o'zbek va ingliz tillarida qo'shma fe'llarning shakllanishi va ishlatilishi umumiy tamoyillarga asoslansa-da, ularning grammatik tizimi va tuzulishida muhim farqlar mavjud. Chunki har bir tilning o'ziga xos grammatik tizimi va tuzulish xususiyatlari mavjud. Shu bois, koreys tilini o'rganishda ushbu grammatik o'ziga xosliklarni chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Hojiyev A. *O'zbek morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalişining nazariy masalalari.*-Toshkent: Fan, 2010.
- [2]. Hojiyev A. *O'zbek tili so'z yasaliş tizimi.*-Toshkent: "O'qituvchi", 2007.
- [3]. *Wisdom English Uzbek dictionary.* <http://onelink.to/wisdomdictionary>
- [4]. *Naver Korean-English Dictionary.* <https://dict.naver.com/term/>
- [5]. [최재희. *한국어 문법론.*2008.384.
- [6]. 남기신, 고영근. *표준국어 문법론.*2010.461.